

muzeý spektakllari sifatida tomoshabini hukmiga havola qilish rusum bo'lgan. Bizning teatrlarda ham el sevgan "Halima", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi klassik asarlarni 20 – 40 yillar usulida saqlab qolib, yangi myuzikl

shaklidagi yoshlar bob asarlar, shunga yarasha shiddatli, maxsus effektli rejissurasi bor spektakllarni yaratgan holda tomoshabinni teatrga qaytarish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov A. "Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida" – G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.
2. Rahmonov M. "Hamza va o'zbek teatri". Toshkent, 1959 yil.
3. Stanislavskiy K.S. "Sanatdagi hayotim" Toshkent 1965 yil.
4. Tursunboyev S, "Teatr tarixi". Toshkent, "Bilm" nashriyoti, 2005 yil.
5. Tursunov T, "Sahna va Zamon". Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2007 yil.

**REZYUME.** Ushbu ilmiy maqolada musiqali teatr an'analarning muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to'xtalib o'tiladi. Ushbu mavzuni ahamiyatligi, bizning davlatchilik tariximiz, boy o'tmishimiz va madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimiz ma'naviyati bugungi teatr san'ati orqali to'lakonli ifodalanishi davrning talabi ekanligidir.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье отмечается важное значение традиций музыкального театра. Кроме того, рассматриваются достигнутые успехи в этой области и проблемы, требующие решения в будущем. Актуальность данной темы заключается в том, что история нашей государственности, богатое прошлое и культура, духовность наших великих предков находят полное отражение в современном театральном искусстве, что является требованием времени.

**SUMMARY.** This scientific article highlights the important role of musical theatre traditions. It also discusses the achievements gained in this field and the issues that need to be addressed in the future. The relevance of this topic lies in the fact that the history of our statehood, our rich past and culture, as well as the spirituality of our great ancestors, are fully reflected in contemporary theatrical art, which is a demand of the present time.

## MUSIQIY SPEKTAKL MAVZUSINING TALQINIDA AKTYORLAR IJODINING O'RNI

**Umid Rasulov** – katta o'qituvchi  
O'zDSMI, "Musiqali teatr san'ati" kafedrası

**Tayanch so'zlar:** musiqali drama, mavzu, janr, ariya, duet, bastakor, rejissyor, aktyor, spektakl.

**Ключевые слова:** музыкальная драма, тема, жанр, ария, дуэт, композитор, режиссёр, актёр, спектакль.

**Key words:** musical drama, theme, genre, aria, duet, composer, director, actor, performance.

"Teatr san'atining markazida asar g'oyasini xatti – harakatda ifoda-laydigan, sahnaning sultoni aktyor turadi. Ajoyib pesani, mahoratli rejissyor sahnalashtirsa ham, ijro sust bo'lsa, badiiy yahlitlikka erishib bo'lmaydi. Sababi, spektaklning ta'sir kuchi ham, rejissyorlik topilmasi ham, avvalo, aktyor mahorati tufayli yechimga ega bo'ladi". [1.117]

Musiqali teatrdam ham bu ko'rsatkich o'zining kuchi va ahamyatini saqlab qoladi. Musiqali teatr san'ati aktyorlardan kuchli aktyorlik mahorati bilan bir qatorda kuchli ovoz imkoniyatini ham talab etadi. Musiqali teatr san'atida aktyorlaridan tashqi hatti harakatlar chizig'i bilan bir paytda ichki jo'shqin shodlik, quvonch va uning aksi

alam iztirobning ortib ketishini musiqada aks ettirib berish talab etiladi. Musiqali teatr san'ati yana shunisi bilan ahamyatliki, musiqiy spektaklda aktyorlik ijodining eng his-hayajonli va muhim daqiqalari musiqa bilan oldindan belgilangan bo'ladi.

Bu borada K.S.Stanislavskiyning quyidagi fikrini keltib o'tishni ma'qul deb topdik. "Musiqachilar, ashulachilar, raqqoslar – baxtli odamlardir. Chunki ularda tempo-ritm muammosi oldindan hal qilingan. Musiqa bizga tuyg'ularni bildiradi, lekin aktyor va aktrisalar bu tuyg'ularni xatti-harakatlarga ko'chira bilishi kerak. Musiqa bizga tuyg'ular mantig'ini ochib beradi, uning yordamida xatti-harakat mantig'ini topiladi va mana

shu harakatlarni bajara borib biz ijod qilish paytida, musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz". [2.217] K.S.Stanislavskiy musiqani bor vujudi bilan tinglash va unning serjilo ohanglari zamiriga singdirilgan tuyg'ular mantig'ini o'zining sahnaviy xatti-harakatiga aylantira bilish qobiliyatini, musiqali teatr aktyori ijodida muhim spetsifik xususiyatlardan biri deb ta'kidlagan edi.

Musiqali teatr aktyori avvalambor, dramaturg tomonidan berilgan shart-sharoitlarda, bastakor tomonidan belgilab berilgan tempo-ritmda maqsadga muvofiq harakat qiladi. Musiqali teatrda inson qalbining tuyg'ularini ochish vazifasi kuylovchi aktyorning ovozig'a yuklatiladi.

Aktyor o'z ijodiy yo'li bo'ylab ilgari lab borar ekan ko'plab mavzu va janrdagi spektakllarda turli qiyofadagi rollarni ijro etishiga to'g'ri keladi. Ayrim aktyorlarning aksariyat rollari dramatik asarlar bilan bog'liq bo'sa, ayrimlariniki ko'proq komik asarlar bilan bog'liq bo'ladi. Va yana shunday aktyorlar borki ular ham dramatik ham komik asarlarda bir hilda rollar ijro etaveradilar. Aktyorning professionalligi rejissyor tomonidan qaysi janrda, qanday rol topshirilishidan qat'iy nazar ma'romiga yetkazib ijro eta olishida ko'zga tashlanadi.

Ijod jarayonida aktyorlarning ijrosiga rejissyor uslubi o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatri aktyori Tohir Raximov "O'lding aziz bo'lding" spektaklida usta Mavlon rolini o'ynar ekan, aniq bir janr qonuniyatlariga bo'ysunuvchi ijroni namoyon qilishga qiynaladi. Chunki bu dramatik tipdagi rol bo'lishiga qaramay uning tegrasini komik personajlar va ularning komik hatti harakatlari qamrab olgan. Usta Mavlonning ichki kechinmalari boshdan oyoq dramatik ruhiyatni namoyon qiladi. Jondan aziz farzandlarining diydorini bir ko'rishga intiq cholning dardu hasrati, farzandlar diydorini ko'rganda esa ulardan eshitadigan malomatlar bosh qahramon-ning dramatik yukini kuchaytiradi. Aktyor bu rol ijrosini tushinib, o'z imkoniyatlari darajasida to'laqonli ijroni namoyon etgan. Ammo spektaklda ro'y berayotgan umumiy voqealar uni o'z tasir doirasidan chiqarib yubor-magan. Tohir Rahimov usta Mavlonning ichki dramatzimini davomli tarzda rivojlantirib borishda biroz noaniqliklarga uchraydi. Yolg'on habar bilan farzandlarining oqibatini sinab ko'rayotgan chol, birinchi o'g'lining ovozini eshitib uning istiqboliga shoshiladi. Bu holat uning ichki kechinmalaridagi dramatzimning o'sib borishini sindirib tashlaydi. Yoki bo'lmasa vakil bilan yuzma yuz kelib qoladigan sahnasida ham bu holat takrorlanadi.

Mazkur spektaklda Avaz rolini Tursunboy Pirjonov mahorat bilan ijro qilgan. Avaz roli usta Mavlon va uning farzandlari bilan kechayotgan sahnalarning o'rtasidagi bog'lovchilik vazifasini o'taydi. Boshdan oyoq komik ruhni o'zida mujassam etgan bu rol, o'z o'rnida o'zining dramatik kuchini ham nomoyon qiladi. Komik qahramonlarning taqdiridagi ayanchli qismatning ochilishi aksariyat spektaklning so'nggi qismiga olib qo'yilsa uning tasir kuchini yanada oshiradi. Avaz rolida bu imkoniyatdan unumli foydalanilgan. Vakil rolining esa spektakl yechimida hech qanday ahamyati yo'q. Shunchaki spektaklning tomoshaviyligini oshirish masadida shishirilgan rol. Uni aktyor Dilmurod Uzoqov o'zining badihago'ylik mahorati yordamida ajoyib topilmalari va ijrosi bilan ma'romiga yetkazib o'ynagan. Vakil roli aynan aktyor ijrosi bilan, spektaklning tomoshaviyligini taminlab turgani uchun ham tirik. Ammo tomoshaviylikni oshirish uchun har qanday bachkana so'z va hatti-harakatlardan foydalanish to'g'ri emas. Bu rol ijrosining tomoshaviyligini oshirish, tomoshabinni kuldirish maqsadida ishlatilgan ba'zi so'zlar spektaklning badiiy estetik ko'rinishiga jiddiy ziyon keltiradi.

Katta o'g'il Sulton rolini Turg'un Beknazarov ijro qilgan. G'o'ddaygan, amaldorligiga putur yetmasligini ko'zlab, har bir masalada sipolik saqlaydi. Hatto otaning azasida yig'lashni ham amali va obro'siga to'g'ri kelmaydi deb biladi. Turg'un Beknazarov bu rolni juda sovuqqon qilib ijro etgan. Bu sovuqqonlik mavzu yuzasidan judayam to'g'ri topilgan. Qolgan farzanlar ham bir biridan o'tib tushadi. O'rtancha o'g'il Doston biznesmen, hayotda hamma narsani pul bilan hal qilish mumkin deb o'ylaydi. Doston rolini Umid Shodmonov va Mehmonali Salimovlar bir biridan o'zgacha uslub va ko'rinishda ijro qilishmoqda. Umid Shodmonov ijrosida bemehrlik birinchi o'ringa chiqsa, Mehmonali Salimov ijrosida mulaqo beparvolik birinchi o'ringa chiqadi.

Kichkina o'g'il Bo'ston roli esa Usmon Yusupov ijrosida o'zining chala shoirligiga bino qo'yib, uzundan uzoq, bemanidan bemani qofiya va vazndagi she'rlariga maftun bo'lib yashayotgan lo'ttivoz sifatida gavdalanadi. Usta Mavlonning yagona qizi Guliston roli Mehri Bekjonova va Norposhsha Hasanovalar tomonidan ijro etilgan. Ular talqinida Guliston o'z oilasidan ortib, bir kelib ota-onasidan habar olgani fursat topmaydigan, o'zining mehribonligini ko'z ko'zlash uchun tinimsiz akasi va ukalarini bemehrlikda ayblab yashovchi shallaqi ayol qiyofasi namoyon bo'lgan.

Biroq ba'zi sahnalarda usta Mavlonning farzandlari qiyofasida janr xususiyatlarining aniqligi yetishmaydi. Ularni aksariyat bajarayotgan hatti harakatlaridan kelib chiqib, komediyaning ishtirokchilari deb oladigan bo'lsak, uch aka-uka tomonidan kuylanadigan, "Amal dedik, boylik dedik, Unutdik o'z otamizni" deb boshlanuvchi triosi dramatik ruhda ijro qilingan. Tinimsiz o'zaro mashmas'halar va sohta yig'i-sig'i bilan, xo'ja ko'rsinga ox-vox qilayotgan aka-ukalar kutilmaganda o'z qilmishlaridan pushaymonliklarini mazkur trio ijrosida namoyish qilishadi. Trio kuylab bo'lingach yana o'sha avvalgi qiyofalariga qaytib olishadi. Trio uchun yozilgan shoirning matni va bastakorning musiqasi mazkur xolatni vujudga keltirgan. Dramaturg bastakor va rejissyorning ijodiy hamkorligining nomukammalligi mazkur xolatlarda ko'zga tashlanib qoladi. Shunga o'hshagan yana bir ko'rinish Gulistonning ilk bor sahnada paydo bo'lgandagi ariyasida ham kuzatiladi. Bu kabi holatlar ishtirokchilarning xarakter xususiyatlari musiqada o'z aksini topmay qolishiga sabab bo'ladi.

Spektaklda mahalla raisi rolini Bozorboy Xolmo'minov o'z ijrosida qiyomiga yetkaza olgan. Bozorboy Xolmo'minov talqinida mahalla raisining savodsiz, subutsiz sumbatiga bino qo'yan, mansab va lavozim doirasida o'zidan jinday katta bo'lgan odamlarning orqasidan yaltoqlanib yugurishi bilan bir paytda, o'zidan quyida turguvchilarni nazar pisand etmaydigan badfel, laqma qiyofasi namoyon bo'ladi. Mahalla raisi rolining xarakter xususiyati aniq tasvirini topgan. "Sahnaning yagona shohi va hukmroni – iste'dodli aktyordir. Dramaturg fikrini izhor qiladigan ham, rejissyor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lib, unga zavq-shavq bag'ishlaydigan ham, uni fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir" [3.5] degan edi Omonulla Rizayev o'zining Nabi Rahimov ijodiga bag'ishlangan kitobida. Teatr aktyorlar bilan tirik. Teatrda aktyorlar bor ekan, badiiy g'oyaviy jihatdan xom pesani ham, noprofessional rejissyor talqinini ham ijro yordamida tomoshaviyligini oshirish yo'li bilan bo'lsa ham spektakllar tomoshabiniga taqdim qilinaveradi. Bahodir Nazarov rejissyorligida sahnalashtirilgan "Mehr nuri" spektaklidagi aktyorlar ijrosi to'g'risida gapirar ekanmiz eng

avvalo O'zbekiston xalq artisti Naima Po'latovanning ijrosiga to'htalib o'tamiz. Uning ijrosida Norgul ona roli o'zining to'laqonli ijrosini topa olgan. Norgul ona siymosidagi ulug'vorlik, mazmundorlik aktrisaning har bir hatti-harakatida o'z aksini topgan. Norgul ona rolini O'zbekiston xalq ar-tisti Maryam Ihtiyorova ham maromiga yetkazib ijro etgan. Uning ijrosida ham Norgul ona rolining dramatik yuki o'zining salmog'ini yo'qotmagan. Har ikkala aktrisaning ijrosida dramatik janr qonuniyatlari o'z kuchini saqlab qolgan. Ayniqsa ular tomonidan ijro qilingan ariyalar dramatismga boyligi bilan tomoshabinni larzaga sola oladi. Ular ijrosida mavzu va janr talablarining hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

Safar rolini Aziz Latipov va Qobil Umirovlar ijro qilishgan. Ular bu rolni o'z tajribalari asosida talqin qilib, tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo'la olishdi. Sora rolini Inobat Umirova va Zulfiya Umirovalar mohirona ijro qilishgan. Ularning ijrosida har bir o'zbek ayoliga xos bo'lgan bolajonlik, onalik bahtining ulug' saodatligini jon dili bilan his etgan ayol qiyofasi namoyon bo'lgan.

Jalil rolini ijro qilgan Umid Shodmonov va Habibulla Ortiqov-larning avvalgi sahnalarda bajargan ayrim komik hatti-harakatlarini aytmaganda bu spektaklda boshdan oyoq dramatik ruh xukmronlik qilgan. Mavzu talabidan kelib chiqadigan bo'lsak bu spektaklning sahnalashtirilib uchun tanlangan janr, mavzu va janr talablarining uyg'unlashishiga hizmat qilgan. Mazkur spektaklda aynan mavzu va janr xususiyatlaridan kelib chiqib yondoshilganda aktyorlarga ijro uchun qiyinchiliklar yuzaga kelmagan.

Bugungi kunda milliy musiqali teatr aktyorlarining keng ovoz imko-niyatiga ega bo'lganlari kamayib bormoqda. Aksariyat hollarda bastakorlar ham musiqqa bastalashda aktyorlarning ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'lum cheklanishlarga duch kelishmoqda. Yirik ovoz imkoniyatiga ega bo'lganlar esa teatr san'atining ravnaqi uchun fidoiylik qilishni o'zlariga lozim topmayaptilar. Ular halq uchun teatrda turib emas, ularning hursandchilik kunlarida yonlarida turib hizmat qilish yo'lini maqul topmoqdalar. Endilikda keng ovoz diapozoniga ega bo'lgan yoshlarni teatrga jalb qilish yo'llarini qidirishimizga to'g'ri keladi.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. M.Umarov. Mannon Uyg'ur estetikasi – T.: Musiqqa, 2007.
2. K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. III tom – M.: Badiiy adabiyot, 1967.
3. O.Rizayev. Nabi Rahimov – T.: G'.G'ulom, 1997.

4. Xushvaqtoy E. (2024). Zamonaviy ssenografiya maishiy janr ifodasi. Interpretation and researches, 2(21), 93-97.
5. Muhammadiyev S. (2024). Yaxlit sahnaviy asar sahnalashtirish ishlari. Oriental Art and Culture, 5(5), 264-267.
6. Usnatov R. (2025). Ishki keshirmeler kórkem óneri haqqında túsinik. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (2), 195-201.
7. Farmonov F. (2024). Hindiston mumtoz musiqasining sharq mamlakatida shakllanish bosqichlari. Oriental Art and Culture, 5(5), 216-218.
8. Rasulov U. (2024). Musiqali dramada dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligi: ular ijodida mavzu va janrning mutanosibliği masalasi. Oriental Art and Culture, 5(5), 572-577.

**REZYUME.** Maqolada o‘zbek musiqali dramasi janr xususiyatlari, musiqali teatr san’atining o‘ziga xos jihatlari, musiqali teatr aktyorlariga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются жанровые особенности узбекской музыкальной драмы, специфические аспекты музыкально-театрального искусства и требования к актерам музыкального театра.

**SUMMARY.** The article discusses the genre characteristics of Uzbek musical drama, specific aspects of musical theater art, and requirements for musical theater actors.